

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AHLOQIY FAZILATLARINI
SHAKLLANTIRISH MAZMUNI****Allayarova Sojida Umirzoqovna****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi****Nurmuhammedova Nilufar****Maktabgacha ta'limda xorijiy til yo'nalishi****2-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.8054777>**

Mamalakatimizning boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarni yuksak darajada tarbiyalash ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada o'ziga xos tajriba to'plangan-ligini ta'kidlab o'tish joiz. Shu jihatdan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ahloqiy fazilatlarni shakllantirish metodikasi muammosini tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni mazkur masalaning mazmuni tahliliga tortamiz.

Ahloqiy fazilat – bu insoniy his-tuyg'ular, fazilatlar va sifatlarga asoslangan hodisadir. Pedagogika tarixida asrlar davomida yosh avlodda ahloqiy fazilatlarni shakllantirish birinchi darajadagi vazifa bo'lib kelmoqda. E'tibor berilsa, ahloqiy fazilat kategoriyasini tashkil etadigan elementlar o'ziga xosdir:

- 1) insoniy his-tuyg'ular: sog'lom ruhiy kechinma, tasavvur, idrok, anglash, tushunish va h.k.
- 2) insoniy fazilatlar: bolaparvarlik, insonparvarlik, oilaparvarlik, vatanparvarlik, faollik va h.k.
- 3) insoniy sifatlar: xarakter, munosabat, hurmat, izzat, qadrlash, mehr-muruvvatlilik, oqibatlilik va h.k.

Mazkur yondashuv asosida biz kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ahloqiy fazilatlarni shakllantirish mazmunini idrok etamiz.

Insoniy his-tuyg'ular, fazilatlar va sifatlar ahloqiy faoliyat kategoriyasining mazmunini tashkil etadi. Shu jihatdan ularning metodik ma'nosi quyidagicha idrok etiladi: insoniy his-tuyg'ular boshlang'ich sinf o'quvchilarining ahloqiy ongini shakllantirish asosidir, insoniy fazilatlar mazkur toifa o'quvchilarning ahloqiy hulq-atvorini kutilgan darajada shakllantirish tayanchidir, insoniy sifatlar esa ushbu toifa o'quvchilarning ahloqiy xatti-harakatlari hamda munosabatlarini shakllantirish negizidir.[1] Bu masala o'quvchilarning ahloqiy xulq-atvori va xarakterini kutilgan darajada shakllantirishning muhim asosidir.

Pedagogikamiz tarixida 7-11 yoshli shaxslarning ahloqiy fazilatlarini shakllantirishga doir muxim tajribalar mavjud. Unga ko'ra, quyidagilar yaqqol ko'zga tashlanib turadi:

- 1) ustoz va ota-onalarning mazkur toifa shaxslarning ahloqiy fazilatlarini hamkorlikda shakllantirish;
- 2) maxsus ustoz vositasida ushbu toifa shaxslarning ahloqiy fazilatlarini shakllantirish;
- 3) mahalla faollari vositasida bu toifa shaxslarning ahloqiy fazilatlarini shakllantirish.

E'tibor berilsa, pedagogikamiz tarixidagi bunday tajribalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalalarni o'rganish va amaliy faoliyatda ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ahloqiy fazilatlarini shakllantirish mazmunida o'ziga xos

xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlarning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlari va aqliy rivojlanish jarayoni hisobga olinishi;
- o'quvchilarning jismoniy va aqliy jihatdan teng rivojlanib borishi nazarda tutilishi;
- o'quvchilarning didi, his-tuyg'ulari va idroklari shakllanish jarayonida bo'lishini hisobga olish.

Bunday yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ahloqiy fazilatlarini kutilgan darajada va samarali shakllantirish mumkin. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilariga (1-4-sinf o'quvchilariga) xos bo'lgan xususiyatlar ularda ahloqiy fazilatlarni tadrijiy ravishda shakllantirib borishni taqozo etadi. Bu xususiyatlarni hisobga olish boshlang'ich sinf o'quvchilarida ahloqiy fazilatlarni shakllantirishning qulay va samarali metodikasiga ega bo'lishga olib keladi.[2] E'tibor berilsa, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlari va aqliy rivojlanish jarayoni boshlang'ich sinfda dinamik tarzda bo'ladi; o'quvchilarning jismoniy va aqliy jihatdan teng rivojlanib borishini nazarda tutish esa ularning ahloqiy fazilatlarini shakllantirishda bosqichma-bosqichlik tizimiga asoslanishni beradi; o'quvchilarning didi, his-tuyg'ulari va idroklari shakllanish jarayonida bo'lishini hisobga olish bilan ularning ahloqiy fazilatlarini shakllantirishda nazariy jihatdan to'g'ri yondashuvga olib keladi. Shu sababli bu xususiyatlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim metodologik omillar qatoriga kiradi.

References:

1. S.U.ALLAYAROVA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI
2. Proceedings of International Educators Conference 2 (1), 51-56
3. А.Н. САНАҚУЛОВ
4. Виртуал реаллик технологияларидан самарали фойдаланишнинг
5. истиқболли йўналишлар. SCIENTIFIC BULLETIN
6. Series: Pedagogical Research
7. 2022/ 6 (66)